

PAREMIYALARNING TIL BIRLIGI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Nabiyeva Kumush Dilshod qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17461488>

Kirish.

O'zbek tili, uning xalq og'zaki ijodi boy va serqirradir. Har bir inson borki, o'z nutqida maqol va matallardan keng foydalanadi. Xalqning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirgan, o'z hayoti davomida sinab, anglagan; qisqa, lo'nda, og'izdan-og'izga ko'chib keluvchi, xalqning o'tmishi, madaniyatini o'zida mujassam qilgan ibratli fikrlari-maqol, matal, ibora, aforizmlar-paremiyalarni Paremiologiya o'rganadi. Paremiya paremiologik qatlamning eng boy va juda ekspressiv namunasi hisoblanadi.

Paremalarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish, paremiologik birliklar chegarasini o'rganish bo'yicha xorijiy davlatlarning, ayniqsa, Rossiyaning qator ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlarida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Sankt Peterburg davlat universiteti, Volgograd davlat universiteti, Smolensk davlat universiteti kabi muassasalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar e'tiborga molikdir.

Tilshunoslikning ushbu bo'limi XX asrning 70 yillarida paydo bo'ldi. "Paremiya" va "paremiologiya" so'zlari qator olimlarning tadqiqotlari, G.L.Permyakovning izlanishlari natijasi o'laroq ilmiy atama maqomini oldi. Paremiologiya asoslari ham mazkur olim tomonidan ishlab chiqilgan.

Albatta, G.L.Permyakovning tasnifi mukammalligi va ko'p qirraliligi bilan bu sohadagi barcha ishlardan ajralib turadi va olimning ham mantiqiy tahlilda, ham axborot (informatsion) qamrovida nihoyatda qudratli ekanidan xabar beradi.

Keyingi yillarda Amerika olimi Alan Dandis, fin olimlari Matti Kuusi, venger olimi Vilmosh Foyt, Z.Kanyo, ingliz olimi N.Barli, rus olimlari Yu.I.Levin, M.A.Cherkasskiy, eston olimi A.A.Krikmann va boshqalarning nazariy mulohazalari va amaliy tadqiqotlari paremiologiya ilmini bugungi bosqichda rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu tadqiqotlar ko'pchiligining asosida G.L.Permyakov yaratgan izchil nazariy sistemani u yoki bu darajada to'ldirish va takomillashtirish yotadi.

Paremiologiya fani borasida ko'pgina tilshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning har qaysi biri ushbu termin to'g'risida o'zlarining alohida fikrlarini bildirishgan. Juda katta davr ichida olimlar, tilshunoslar har biri ularni, ya'ni paremiologiya fanining obyektlaridan biri bo'lmish maqollarni o'zicha tasnif qilgan. Natijada maqollarni tasnif qilishning bir necha turi vujudga kelgan.

An'anaviy rus tilshunosligida paremiologik fondni o'rganish to'rt bosqichda amalga oshirilgan:

1. Sinkretik, qamrab oluvchi davr (XVII asrgacha). Bu davrda paremalar xalq qadriyatini jamlagan "xalq aksiomalari" sifatida shakllana boshladi.

2.To'plovchi davr (XVII-XIX asr boshlarigacha). Maqol va matal to'plamlari nashr qilina boshladi.

3. Belgilovchi davr (XIX asrning 30 yillaridan XX asr o'rtalari gacha). Ilk bor to'plamlarda maqol va matallarni tipologizatsiyalashga urinish boshlandi, paremalarni bir xil birliklar doirasidan ajratib o'rganishga urinilgan (bunda maqollarga folkloristik, etnolingvistik va

lingvistik jihatlar bilan o'rganiluvchi mini matnlar sifatida qarala boshladi) tematik ilmiy maqolalar yuzaga keldi.

4. Sotsiomadaniy davr (XX asr o'rtalaridan hozirgi paytgacha). Rus va chet tilidagi paremlar turli qarashlarda o'rganilib, ularga nafaqat folkloristik, balki til birligi sifatida baho berildi. Shu bilan birga paremlar xalq mentalitetini aks ettiruvchi manba sifatida etnomadaniy, lingvokulturologik nuqtayi nazarlarda tahlil qilina boshlandi. Xorij tilshunosligida maqollarning paremiologiya sathida o'rganilishini 5 davrga bo'lish mumkin:

I davr (XVI-XVIII asrlar). Maqollarning oddiy to'plamlarini yaratish davri (J. Heywood; J. Howell; J. Ray; W. Walker, T. Fuller).

II davr (XVII-XIX asr o'rtalari). Maqollarni poetik va falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish davri (J. Zingerle).

III davr (XIX asrning II yarmi - XX asr boshlari). Maqollarni qiyosiy va tarixiy jihatdan tahlil qilish davri [Skeat 1910].

IV davr (XX asrning 30- yillari). Maqollarni psixologik aspektda o'rganilish davri [Albig 1931; Bain 1939].

V davr (1960-yillardan hozirgi davrgacha). Maqollarni kontekstual o'rganish [Taylor 1975; Grzybek 1984; Mieder 1992]. Maqollarni struktural- semantik tahlil qilish [Dundes 1980; Norrick 1985, Honeck 1997].

An'anaviy rus tilshunosligida paremiologik fondni o'rganish to'rt bosqichda amalga oshirilgan:

1. Sinkretik, qamrab oluvchi davr (XVII asrgacha). Bu davrda paremlar xalq qadriyatini jamlagan "xalq aksiomalari" sifatida shakllana boshladi.

2. To'plovchi davr (XVII-XIX asr boshlarigacha). Maqol va matal to'plamlari nashr qilina boshladi.

3. Belgilovchi davr (XIX asrning 30-yillaridan - XX asr o'rtalari gacha). Ilk bor to'plamlarda maqol va matallarni tipologiyalashtirishga urinish boshlandi, paremlarni bir xil birliklar doirasidan ajratib o'rganishga urinilgan (bunda maqollarga folkloristik, etnolingvistik va lingvistik jihatlar bilan o'rganiluvchi mini matnlar sifatida qarala boshladi), tematik ilmiy maqolalar yuzaga keldi.

4. Sotsiomadaniy davr (XX asr o'rtalaridan hozirgi paytgacha). Rus va chet tillaridagi paremlar turli qarashlarda o'rganilib, ularga nafaqat folkloristik, balki til birligi sifatida baho berildi. Shu bilan birga paremlar xalq mentalitetini aks ettiruvchi manba sifatida etnomadaniy, lingvokulturologik nuqtayi nazarlardan tahlil qilina boshlandi.

Zamonaviy xorij maqol lug'atlarini (ingliz tili doirasida) 3 ta katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Tarjima lug'atlar (ingliz maqollarining turli dunyo tillaridagi ekvivalentlarini jamlagan).

2. Bir til doirasidagi yoki bir tarixiy davrdagi maqollarga bag'ishlangan lug'atlar.

3. Lingvokulturologik lug'atlar.

Yuqorida keltirilgan guruhlariga mansub eng mashhur lug'atlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: J. Asperson lug'ati [1929]. Bartlett Uayting to'plami [1989], Oksford maqol lug'ati [2004], Klifford Uitting lug'ati [1968] va Archer Teylor lug'ati [1986].

Xorij tilshunosligida (ingliz tili materiallari asosida) maqollarning o'rganilishi quyidagi yo'nalishlarga asoslangan:

1. Ayrim maqollarning diaxron va sinxron aspektida o'rganilishi (W.Mieder, A.Dundes, J.Pomerantz).
2. Maqollarning lingvokulturologik aspektida o'rganilishi (W.Daniel, M.Barbour).
3. Turli tillarga oid maqollarni tipologik chog'ishtirib o'rganish (Henry, G.Bohn).
4. Maqollarning psixologik aspektida o'rganilishi (D.Karlheinz, K.Higbee).
5. Maqollar fondini didaktik va metodik maqsadlarda ishlatilishi (ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda) (Y.Hirsch, W.Mieder).

Ushbu maqolning variantdoshlaridan ("Ot o'limi itga to'y", "otning o'limi itning bayrami") biri "Otning o'limi itning bayrami" Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ham epigraf qilib keltirilgan. Hikoya mazmunidan kelib chiqib, biz tahlilda ot timsolida yuqori tabaqali zolim amaldorlarni, it timsolida esa, mehnatkash xalqni tushunamiz. Ammo "O'zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi" kitobida ot timsoli hamisha ijobiy, deb xulosa aytilgan: "Inson tabiatini ochib berishda hayvonlarning ijobiy-salbiy xususiyatlari 3 xil qarashda shakllangan:

1 Ijobiy (barcha o'rinlarda ijobiy xususiyatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi). Masalan: Ot topadi, eshak yeydi (mehnatkash odam). Ot o'limi - itga to'y (yaxshi odam)..."

Biz chog'ishtirib o'rganmoqchi bo'lgan tilimiz- fransuz tili ham paremiyalarga boy til hisoblanadi. Ulardagi **Le malheur des uns fait le bonheur des autres** maqoli "Kimningdir baxtsizligi boshqalar uchun baxt", deya tarjima qilinadi.

De chaque mésaventure qui arrive à quelqu'un, une autre personne en tirera profit. (Birovning boshiga tushgan har bir baxtsizlikdan boshqa birovga foyda keladi.)

- **J'ai acheté cette maison 230 000€ au lieu de 300 000€.** (Men bu uyni 300 000 evroga emas, 230 000 yevroga sotib oldim.)

- **Comment ça se fait ?** (Qanaqasiga ?)

- **Les propriétaires étaient en train de divorcer et ils étaient pressés de vendre.** (Egalari ajrashayotgani uchun uyni sotishga shoshilishdi.)

- **Tant mieux pour toi ! Le malheur des uns fait le bonheur des autres.**

Birovning boshiga tushgan har bir baxtsizlikdan boshqa birovga foyda keladi. (Siz uchun yaxshi! Ba'zilar baxtsizligi boshqalarning baxtidir.) Fransuzcha bu maqolning etimologiyasi bilan tanishib chiqsak, bu maqol XVII asr oxiri XVIII asrda yashagan fransuz yozuvchisi va faylasufi Voltaire (asl nomi François Marie Arouet) ga borib taqaladi. U o'zining « **Candide ou l'optimisme** » (Ochiqko'ngil yoki optimizm) asarida bu maqolni birinchi marta qo'llagan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, deyarli bir xil vaziyatda qo'llanilgan ushbu maqol bizda hayvonlar timsolida berilgan bo'lsa, fransuzlarda baxt va baxtsizlik so'zlari bilan izohlangan.

Xulosa: Yuqorida o'zbek va fransuz tillari paremiologiyalarining chog'ishtirma aspektidagi tadqiqotlarni o'rganib chiqdik. Misol keltirganimizdek, Djafarovning "Fransuz va o'zbek paremiologiyasida "tarixiy xotira" ni ifodalashda til o'yinlarini o'zaro ta'siri (ahamiyati)" nomli maqolasida fransuz va o'zbek tillarida tarixiy xotirani ifodalovchi paremiologik birliklar tarkibida kalambur, so'z o'yinlarining ishtirok etishi tahlil qilingan bo'lsa, Kurbonova "Fransuz va o'zbek tillaridagi to'qima paremiologiyalarning chog'ishtirma tahlili" nomli maqolasida fransuz tilidagi to'qima toponim komponentli paremiologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari kalambur uslubiy vositalari asosida o'rganilgan. Ikki maqolada ham deyarli bir xil kalambur uslubiy vositani tahlil qilish ko'zda tutilgan. Ikki olim ham o'z

maqolalari orqali deyarli bir xil tushunchani ifodalashga harakat qilgan. Fransuz tilida juda ko'p duch kelinadigan so'z o'yinlari, ajoyib qochirimlar mavjudligini isbotlagan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. Amanov A.T. Paremiyalarning va ularni madaniy meros sifatida o'rganish // Ilmiy axborotnoma,-Samarqand,2016. №4. –B.215.
3. Bahranova D. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o'zbek va ispan tillari materiallarida) –Toshkent,2017.
4. Berdiyev X., Rasulov R. O'zbek tilidagi paremlar lug'ati.-T.,1984.
5. Djafarova D. Fransuz va o'zbek paremiologiyasida "tarixiy xotira"ni ifodalashda til o'yinlarini o'zaro ta'siri (ahamiyati) // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – B. 255-259.
6. Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi // Xorijiy filologiya. № 4. 2020. -B.129-136.